

**MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI XODIMLARINING  
XIZMATDAGI  
XULQ-ATVORINING ASOSIY PRINSIPLARI VA  
QOIDALARI**



Muallif: **Hotamova G. O.**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA TA'LIM VAZIRLIGI  
SAMARQAND TUMAN MAKTABGACHA TA'LIM BO'LIMI  
Uslubiy ko'rsatma

Samarqand-2022

Ushbu qo'llanmada maktabgacha ta'lismi tizimi xodimlarning axloqiy xulq-atvorini shakllantirish usullari va vositalari, maktabgacha ta'lismi tizimi xodimlarining xizmatdagi xulq-atvori hamda uning asosiy tamoyillari va qoidalari, shuningdek, maktabgacha ta'lismi odob-axloq qoidalariiga rioya etilishini takomillashtirish chora-tadbirlari yoritilgan.

**MUNDARIJA**

|  |    |
|--|----|
| Kirish.....  | 4  |
| Maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarning axloqiy xulq-atvorini shakllantirish usullari va vositalari....       | 6  |
| Maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarning xizmatdagi xulq-atvorining asosiy tamoyillari va qoidalari.....       | 10 |
| Maktabgacha ta'lim tizimida odob-axloq qoidalariiga rioya etilishini takomillashtirish chora-tadbirlari..... | 16 |
| Xulosa.....  | 23 |
| Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati.....   | 25 |

**Kirish**

Har bir sohani o'zining etiket qoidalari mavjud. Maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarining ham xizmatdagi odob axloq qoidalari mavjud bo'lib, mazkur odob-axloq qoidalari O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2021-yilning 11-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tizimida odob-axloq qoidalariiga rioya etilishini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 11-sonli buyrug'i asosida tasdiqlangan. Mazkur buyruq asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ham odob-axloq qoidalari tasdiqlangan bo'lib, tizim xodimlari mazkur qoidalari asosida faoliyat yuritib kelmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimi xodimlari o'z faoliyatlarida bir qator xulq-atvorning asosiy tamoyillari va qoidalariiga rioya etishlari shart. Xodimlar o'z faoliyatlarida qonuniylik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, vatanparvarlik va xizmat burchiga sodiqlik, davlat va jamiyat manfaatlariga sadoqat, adolat, halollik va xolislik, professionallik va kompetentlik, samaradorlik va tejamkorlik kabi qoidalarga rioya etishlari shart. Odob-axloq qoidalari tizimda xodimlarning o'z majburiyatlarini bajarishda amal qilishi lozim bo'lgan vazifalardan iboratdir.

Maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarning axloqiy xulq-atvorini shakllantirish usullari va vositalari

Maktabgacha ta'lim tizimida odob-axloq qoidalariiga amal qilishda eng avvolo, tizimda rahbarlik qilayotgan rahbarning birinchi navbatda o'z odob-ahloq normalarini bajarishi va o'zi rahbarlik qilib kelayotgan jamoada namuna bo'lishini ta'minlashi lozim. Maktabgacha ta'lim tizimi muassasalarining rahbarlari ish jarayonida xodimlarning axloqiy xulq-atvorini shakllantirishlari va ularning ishga bo'lgan munosabatlarini o'zgartirishlari, jamoatchilik qobiliyatlarini shakllantirishlari lozim.

Maktabgacha ta'lim vazirligi tizimi rahbarlari xodimlarning axloqiy xulq-atvorini shakllantirishda quyidagilarga majburdirlar:

o'z mansab majburiyatlarini bajarishda "Odob-axloq Qoidalari"da belgilangan axloq normalari va tamoyillarga so'zsiz rioya qilinishida shaxsiy namuna ko'rsatish;

xodimlar bilan o'zaro munosabatlarda halol bo'lish, ularning takliflari, g'oyalari, talablari va shikoyatlariga o'z vaqtida javob berish;

kamsitishga oid siyosatga yo'l qo'ymaslik va xodimlarga mehnatga haq to'lash va xizmat bo'yich ko'tarilishida teng huquq va imkoniyatlarga kafolat berish;

xodimlarga ularning hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazmaydigan sharoitlarni yaratish;

xodimlar bilan munosabatlarini uzoq muddatli hamkorlik qilish, maqsadlar umumiyligi, o'zaro manfaatlarni hurmat qilish va hisobga olish, ijtimoiy sheriklik asosida o'rnatish;

manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va hal qilish bo'yicha o'z vaqtida birlamchi choralarini ko'rish;

korrupsiyani oldini olish, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishda faol qatnashadigan xodimlarni himoya qilish va rag‘batlantirish bo‘yicha choralar ko‘rish;

vazifalar doirasini aniq belgilab olish, bo‘ysinuvchi xodimlar o‘rtasida ularning mansabi va kasbiy layoqatidan kelib chiqib taqsimlash, xodimlarning lavozim majburiyatlari doirasidan chetga chiqadigan vazifalarni bermaslik;

xodimni asossiz ravishda rag‘batlantirish va lavozim bo‘yicha ko‘tarilishiga yo‘l qo‘ymaslik, shuningdek, g‘ayrihuquqiy harakatlarga e‘tibor bermaslikka qarshi choralar ko‘rish (masalan, xodimlar tomonidan o‘z faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun yetarli darajada choralar ko‘rilmasligi);

xodimlarni majburiy mehnatda, jumladan, shahar hududlarini obodonlashtirishda, mavsumiy qishloq xo‘jaligi ishlarida, shuningdek, boshqa mavsumiy tadbirdarda qatnashishlarini oldini olish (tegishli tashkilot hududida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlik Mahkamasining tegishli qarori bilan xavfsizlik standartlariga qat‘iy rioya qilingan holda ixtiyoriy shanbalik tashkil etilgan hollar bundan mustasno);

xodimlarini samarali boshqarish, ular tomonidan tizim mol-mulki va moliyaviy resurslari bilan ehtiyyotkor va tejamkor munosabatda bo‘lishlarini kuzatish;

o‘ziga bo‘ysunuvchi xodimlar tomonidan mazkur Qoidalar buzilishini oldini olishga bo‘lgan harakatsizligi uchun javob berish.

Vazirlik tizim muassasalarining rahbarlari o‘ziga bo‘ysunuvchi xodimlar bilan munosabatlarda professional, halol va adolatli xulq-avtor namunasi bo‘lishi, qulay ish muhitini yaratishi hamda tizimda ijobjiy ma‘naviy-psixologik muhitni shakllantirishga ko‘maklashishlari lozim.

Vazirlik tizimi rahbarlari nepotizm, favoritizm, maxilliychilik, homiylik, urug‘-aymoqchilik va boshqa belgilarga ko‘ra xodimlarni yollash, rotatsiya qilish, lavozimga tayinlash, rag‘batlantirish yoki jazolash, shuningdek, ularga boshqacha sub‘ektiv munosabatda bo‘lishga yo‘l qo‘ymasliklari kerak.

Maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarning xizmatdagi xulq-atvorining asosiy tamoyillari va qoidalari

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2021-yil 11-yanvardagi 11-sonli buyrug‘ining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi tizimi xodimlarining odob-axloq qoidalarda tizim xodimlarining xizmatdagi xulq-atvorining asosiy qoidalari va tamoyillari ko‘rsatilgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

qonuniylik – vazirlik tizimi xodimlari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi so‘zsiz rioya qiladilar hamda o‘z xizmat majburiyatlarini mansab yo‘riqnomalari, mehnat shartnomalari, ichki hujjatlar va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi muvofik bajaradilar;

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi – fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini vazirlik tizimining oliy qadriyati bo‘lib hisoblanadi, soha xodimlari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzilishiga yo‘l qo‘ymaydilar va qonunbuzarlik bo‘lgan hollarda ularni tiklashga ko‘maklashadilar.

vatanparvarlik va xizmat burchiga sodiqlik – vazirlik tizimi xodimlari o‘z faoliyatini ma‘naviy va vatanparvarlik qadriyatlari, Vatanga sadoqat, xizmat burchiga sodiqlik asosida jamiyatning tizimiga bo‘lgan talabini ifodalagan holda amalga oshiradilar. Vazirlik tizimi xodimlari o‘z xizmat burchlarini shaxsiy xayrihoxlik, o‘z manfaatlarini va mafkuraviy qarashlaridan qatiy nazar bajaradilar;

davlat va jamiyat manfaatlariga sadoqat – maktabgacha ta’lim tuzilmalari va tashkilotlarining xodimlari o‘z xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarishga hamda davlat va jamiyat manfaatlarini ko‘zlashga to‘sinqlik qiladigan shaxsiy manfaatdorligi ta’siri bilan bog‘liq har qanday harakatlardan o‘zlarini tiyishlari lozim;

adolat, xalollik va xolislik – vazirlik tizimiga murojaat qilgan barcha shaxslarga nisbatan adolatli, xalol va xolis munosabatda bo‘lishni ta’minlaydilar;

professionallik va kompetentlilik – vazirlik tizimi xodimlari tizimning asosiy qadriyati bo‘lib hisoblanadi, ularning malakasi, ishonchi, ezgu niyati, hamkorligi va jamoaviy ruhi qo‘yilgan maqsadlarga erishish hamda sohani takomillashtirish imkonini beradi. Vazirlik tizimi xodimlari professionallik, benuqson ishchanlik obrusi, jamoada qulay ma’naviy va ruhiy muhitni yaratishda yordam berish, shuningdek, hamkasblari bilan samarali bilim va tajriba almashishni ta’minlashi majburiydir;

samaradorlik va tejamkorlik – vazirlik tizimi o‘z faoliyati samaradorligini oshirishni, jumladan, erishilishi jamiyat va davlat farovonligini oshirish imkonini beradigan strategik vazifalardan biri sifatida ichki boshqaruv, fuqarolar, tashkilotlar va davlat organlari bilan o‘zaro aloqalar tizimini takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni tadbiq etish va boshqa yo‘llar bilan doimiy ravishda ko‘rib chiqadilar. Soha xodimlari, o‘z navbatida, tizimning mulkiga, o‘zining va boshqa xodimlarning vaqtiga mas’uliyat va ehtiyyotkorlik bilan yondashadilar.

O‘ziga bo‘ysunuvchi xodimlarning axloqiy xulq-atvorini shakllantirishda quyidagilarga asosiy e’tiborni qaratish zarur:

- o‘z mansab majburiyatlarini bajarishda xodimlarining odob-axloq qoidalari”da belgilangan odob-axloq normalari va tamoyillariga so‘zsiz rioya qilinishida shaxsiy namuna ko‘rsatish;
- xodimlar bilan o‘zaro munosabatlarda halol bo‘lish, ularning takliflari, g‘oyalari, talablari va shikoyatlariga o‘z vaqtida javob berish;
- kamsitishga oid siyosatga yo‘l qo‘ymaslik va xodimlarga mehnatga haq to‘lash va xizmat bo‘yicha ko‘tarilishida teng huquq va imkoniyatlarga kafolat berish;
- xodimlarga ularning hayoti va sog‘lig‘iga zarar yetkazmaydigan sharoitlarni yaratish;
- xodimlar bilan munosabatlarini uzoq muddatli hamkorlik qilish, maqsadlar umumiyligi, o‘zaro manfaatlarni hurmat qilish va hisobga olish, ijtimoiy sheriklik asosida o‘rnatish;
- manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va hal qilish bo‘yicha o‘z vaqtida birlamchi choralarни ko‘rish;
- korrupsiyani oldini olish, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishda faol qatnashadigan xodimlarni himoya qilish va rag‘batlantirish bo‘yicha choralar ko‘rish;

vazifalar doirasini aniq belgilab olish va bo‘ysunuvchi xodimlar o‘rtasida ularning mansabi va kasbiy layoqatidan kelib chiqib taqsimlash, xodimlarning lavozim majburiyatları doirasidan chetga chiqadigan vazifalarni bermaslik;

– xodimni asossiz ravishda rag‘batlantirish va lavozim bo‘yicha ko‘tarilishiga yo‘l qo‘ymaslik, shuningdek, g‘ayrihuquqiy harakatlarga e’tibor bermaslikka qarshi choralar ko‘rish (masalan, xodimlar tomonidan o‘z faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun yetarli darajada choralar ko‘rilmasligi);

– xodimlarni majburiy mehnatda, jumladan, shahar hududlarini obodonlashtirishda, mavsumiy qishloq xo‘jaligi ishlarida, metall qoldiqlarini yig‘ishda, shuningdek, boshqa mavsumiy tadbirlarda qatnashishlarini oldini olish (tegishli tashkilot hududida O‘zbekiston Respublikasi Prezident yoki Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan xavfsizlik standartlariga katiy rioya qilingan holda ixtiyoriy shanbalik tashkil etilgan hollar bundan mustasno);

– xodimlarni samarali boshqarish, ularning tizim mol-mulki va moliyaviy resurslari bilan ehtiyyotkor va tejamkor munosabatda bo‘lishlarini kuzatish;

– o‘ziga bo‘ysunuvchi xodimlar tomonidan mazkur qoidalarni buzilishini oldini olishga bo‘lgan harakatsizligi uchun javob berish.

– vazirlik tizimi rahbarlari o‘ziga bo‘ysunuvchi xodimlar bilan munosabatlarda professional, halol va adolatli xulq-avtor namunasi bo‘lishi, qulay ish muhitini yaratishi hamda sohada ijobjiy ma’naviy-psixologik muhitni shakllantirishga ko‘maklashishlari lozim.

– vazirlik tizimi rahbarlari nepotizm, favoritizm, mahalliychilik, homiylik, urug‘-aymoqchilik va boshqa belgilarga ko‘ra xodimlarni yollash, rotatsiya qilish, lavozimga tayinlash,

rag'batlantirish yoki jazolash, shuningdek, ularga boshqacha sub'ektiv munosabatda bo'lishga yo'l qo'ymasliklari kerak.

Maktabgacha ta'lim tizimida odob-axloq qoidalariga rioya etilishini takomillashtirish chora-tadbirlari O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tizimida odob-axloq qoidalarida rioya etilishini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Buyrug'i (2021-yil 11-yanvardagi 11-sonli buyrug'i)da maktabgacha ta'lim tizimida odob-axloq qoidalariga rioya etilishini takomillashtirish chora-tadbirlari belgilangan.

Vazirlik tizimi xodimlari o'z xizmat majburiyatlarini bajarishda quyidagilarga majburdirlar:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiysi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari qarorlariga rioya qilish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, vazirlik Hay'ati qarorlari, vazirning buyruqlari va ichki idoraviy hujjatlarini bajarish;
- o'z xizmat majburiyatini vijdonan va professional darajada bajarish;
- yuqori turuvchi davlat organlari va mansabdor shaxslari tomonidan o'z vakolati doirasida qabul qilingan farmoyishlarni o'z vaqtida va sifatli ijro etish;
- o'z faoliyatini qonunchilik va ichki hujjatlarda belgilangan kompetensiya doirasida amalga oshirishi;
- o'z xizmat majburiyatlarini bajarayotganda fuqarolar va boshqa shaxslarni kamsitmaslik, ular ta'siridan o'z mustaqilligini saqlab qolish, fuqarolar huquqlari, majburiyatları va qonuniy manfaatlarini hisobga olish;
- xizmat majburiyatlarini bajarishga to'sqinlik qilishi yoki ularni bajarishda biron-bir shaxsiy, mulkiy yoki boshqa manfaatlarga taalluqli bo'lishi mumkin bo'lgan harakatlardan o'zini tiyish;
- xizmat majburiyatlarini samarali bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni doimiy asosda oshirish;
- o'z vakolatlaridan davlat organlari, boshqa tashkilotlar yoki ular mansabdor shaxslari faoliyatiga noqonuniy aralashish maqsadida foydalanmaslik;
- turli etnik, ijtimoiy guruhlar va konfessiyalarining madaniy va boshqa xususiyatlarini hisobga olib, ijtimoiy barqarorlik, millatlar va konfessiyalararo totuvlikka ko'maklashgan holda O'zbekiston Respublikasi va boshqa mamlakatlar xalqlarining urf-odatlari va an'analarini xurmat qilish;
- xodimlar tomonidan o'z xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarishiga shubha o'yg'otishi mumkin bo'lgan xulq-avtordan o'zini tiyish va o'z obrusi yoki soha nufuzini tahdid ostiga olishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni oldini olish;
- egallab turgan lavozimi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, yuqori darajada ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lish, hamkasblariga, fuqarolarga va boshqa uchinchi shaxslarga xurmat, xushmuomalalik va xayriyohlik bilan munosabatda bo'lish;
- maktabgacha ta'lim tizimi ishi to'g'risida jamoatchilikni xabardor qilish yuzasidan ommaviy axborot vositalari vakillari faoliyatiga xurmat bilan munosabatda bo'lish, shuningdek, belgilangan tartibda ishonchli ma'lumotlarni olishga ko'maklashish;
- maxfiy axborotdan faqat xizmat maqsadlarida foydalanish, shuningdek, maxfiy axborot va shaxsiy ma'lumotlarni nobud qilish, yo'qotish, o'zgartirish, oshkor qilish, zarar yetkazish, ruxsatsiz foydalanish xavfidan tegishli darajada himoya qilinishini ta'minlash;
- haqoratli, hurmatsiz va kamsituvchi xulq-atvorda bo'lishga, shuningdek, maktabgacha ta'limi tuzilmalari hamda tashkilotlari va/yoki ular xodimlarining obro'siga putur yetkazadigan zo'ravonlik yoki yolg'on mish-mishlarni tarqatilishiga yo'l qo'ymaslik;
- o'z xizmat majburiyatlarini bajarayotganda xizmat xonalari, davlat mulki, moddiy-texnik bazadan hamda tizimni boshqa mulkidan faqat xizmat maqsadlarida foydalanish;

- xatlar va xizmat xabarlarini yetkazish va olishning tizimda belgilangan qoidalariga rioya qilishi;
- qonunbuzarlik sodir etishga undab o‘ziga murojaat qilgan holatlар, shuningdek, vazirlik tizimi boshqa xodimlari tomonidan sodir etilgan va o‘ziga ma’lum bo‘lgan har qanday qonunbuzarlik holatlari hakida o‘z rahbari yoki boshqa vakolatli shaxslarni zudlik bilan xabardor qilish;
- tizimdagi yangi va boshqa xodimlarga zarur amaliy va uslubiy yordam ko‘rsatish, hamkasblarini ularning kasbiy intilishlarida qo‘llab-quvvatlash;
- mehnat intizomiga rioya qilish va ish vaqtidan samarali foydalanish, ish joyida va/yoki o‘z xizmat majburiyatlarini bajarishda alkogol, giyo xvand va boshqa taqiqlangan vositalarni iste’mol qilishdan, shuningdek, ish joyida alkogol yoki giyo xvand vositalar ta’sirida bo‘lish holatidan voz kechish va bunday holatlarga yo‘l qo‘ymaslik;
- hamkasblari va boshqa shaxslardan tanqidni tug‘ri qabul qilish, shuningdek, xolis e’tirozlar bo‘lganda xulq-atvorini o‘zgartirish;
- berilgan vazifalarni bajarishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan tinch emotsiyal holatda bo‘lish. Siyosiy, iqtisodiy maqsadga muvofiqlik, shuningdek, shaxsiy va boshqa sub’ektiv sabablar xodim tomonidan mazkur qoidalar talablarini buzishga asos bo‘lib hisoblanmaydi.

Mehnat shartlari va xizmat turidan kelib chiqib, xodimning o‘z xizmat majburiyatlarini bajarishida tashqi ko‘rinishi fuqarolar tomonidan ommaviy hokimiyatni xurmat qilishga ko‘maklashishi, umumqabul qilingan ish uslubiga muvofiq bo‘lishi va rasmiylik, kamtarlik va intizomlilikni alohida ta’kidlashi lozim.

Xodimlar ishdan bo‘sh vaqtlarida umumqabul qilingan odob-axloq normalariga rioya qilishlari va axloqqa zid keluvchi xulq-atvordan o‘zlarini tiyishlari kerak.

Tizimi xodimlariga xodim o‘z xizmat majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq holda jismoniy va yuridik shaxslardan biron-bir sovg‘a yoki ish muomalasida mehmondo‘stlikning belgilari, qarz, kafolatlar, kafilliklar, mukofotlar shaklida rag‘batlantirish vositalarini, naqd pul mablag‘lari yoki ularning ekvivalenti, qimmatli qog‘ozlar ko‘rinishida moddiy yordam qabul qilish taqiqlanadi.

| Nº | Chora-tadbirning nomi | O‘tkaziladigan joyi va vaqt | Mas’ullar | Amalga oshirish mexanizmlari |
|----|-----------------------|-----------------------------|-----------|------------------------------|
| 1  |                       |                             |           |                              |
| 2  |                       |                             |           |                              |
| 3  |                       |                             |           |                              |
| 4  |                       |                             |           |                              |
| 5  |                       |                             |           |                              |

## **Xulosa**

Jamiyatning turli bosqich va jarayonlarida amalga oshiriladigan hech bir rasmiy, siyosiy, madaniy, iqtisodiy va boshqa munosabatlar odob qoidalarisiz amalga oshirilmaydi.

Axloq-odob qoidalari – bu jamiyat hayotining barcha qatlamlarida turli shakllarda namoyon bo‘luvchi huquqiy, axloqiy, an'anaviy va shu kabi odamlarning xulq-atvori, xatti-harakatlariga xizmat qilgan qat‘iy normalar, tavsiyalar, talablar yig‘indisidir.

Odob-axloq qoidalari Maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarini yuksak huquqiy ong, O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga qat‘iy rioya qilish ruhida tarbiyalashga hamda huquqbuzarlikning oldini olishga, ular sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishga qaratilgan bo‘lib, ular o‘z navbatida egallab turgan lavozimidan qat‘i nazar Maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarining kasbiy odob-axloqining umumiyligi prinsiplari va xizmatdagi xulq-atvorining asosiy qoidalari yig‘indisidan iboratdir.

Shuningdek, Odob-axloq qoidalarida Maktabgacha ta'lim tizimi xodimlari tomonidan yuqoridagi prinsiplar doirasida o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishda qat'iy majburiyatlar belgilab beradi.

Maktabgacha ta'lim tizimi xodimlari xizmatdan tashqari vaqtida umumiyligini qabul qilingan odob-axloq normalariga rioya etishlari, g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga yo'l qo'ymasligi lozimligi belgilab berilgan.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.: "O'zbekiston", 2019.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" "O'zbekiston", 2017
3. Mirziyoyev Sh.M. "Buyuk kelajagamizni mard va olıyanob xalqımız bilan birga quramiz" "O'zbekiston", 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. "Taqnidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" "O'zbekiston", 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" "O'zbekiston", 2017.
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Xulq>.